

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasining
2022- yil 20- iyuldagi
26- sonli qaroriga
ILOVA

Daromadlarning taqsimlanishi hisoblarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Daromadlarning taqsimlanishi hisoblarini shakllantirish bo'yicha mazkur uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o'rinlarda – MHT–2008) konsepsiyalariga, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablariga asoslangan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan daromadlarning taqsimlanishi hisoblarini yuritish tartibini belgilab beradi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

iqtisodiyotning institutsional sektori bajaradigan vazifalari va moliyalashtirish manbalari jihatidan bir xil bo'lgan institutsional birliklarning ya'ni, o'z nomidan aktivlarga egalik qilishi, majburiyatlarni zimmasiga olishi, xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida iqtisodiy faoliyat yuritishi va boshqa birliklar bilan operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan birliklar majmuidir;

nomoliyaviy korporatsiyalar sektori asosiy faoliyati bozorda sotish va foyda olish maqsadida tovarlarni ishlab chiqarish va nomoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan institutsional birliklarni o'z ichiga oladi;

moliyaviy korporatsiyalar sektori asosiy faoliyati moliyaviy xizmatlar, shu jumladan, moliyaviy vositachilik, sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan barcha rezident korporatsiyalarni, shuningdek, moliyaviy vositachilikka yordamchi faoliyat turlarini amalga oshiruvchi birliklarni o'z ichiga oladi;

davlat boshqaruvi organlari sektori davlat budjetidan va davlat maqsadli budjetidan tashqari jamg'armalar hisobidan moliyalashtiriladigan, davlat boshqaruvi, tartib va xavfsizlikni ta'minlash, mudofaa, fan va ilmiy xizmatlar sohasida jamoaviy xarakterga ega bo'lgan nobozor xizmatlar hamda ta'lim, madaniyat va sport, dam olish va uy-joy xizmatlari sohasida individual xarakterga ega bo'lgan xizmatlarni ko'rsatadigan davlat muassasalarini o'z ichiga oladi;

uy xo'jaliklari sektori asosiy vazifasi ishchi kuchi taklifi va yakuniy iste'mol, shuningdek, sotish va o'z iste'moli uchun mahsulot ishlab chiqarish va

xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishdan iborat bo'lgan barcha rezident uy xo'jaliklarini o'z ichiga oladi;

uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori (UXXKNT) davlat boshqaruvi organlari nazorati ostida bo'lmagan, uy xo'jaliklariga yoki umuman jamiyatga nobozor tovarlar va xizmatlarni taqdim etadigan barcha notijorat tashkilotlarni (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, jamiyatlar va jamg'armalar, korxonalarining o'z xodimlariga ijtimoiy-madaniy xizmatlarni ko'rsatadigan bo'linmalarini) o'z ichiga oladi;

tashqi dunyo rezident birliklar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan yoki mamlakatning rezident birliklari bilan boshqa iqtisodiy aloqalarga ega bo'lgan barcha norezident institutsional birliklarni qamrab oladi;

yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan MHTning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir;

yollanma ishchilarning mehnatiga haq to'lash – hisobot davrida ish beruvchi tomonidan xodimga bajargan ishi uchun to'lanishi kerak bo'lgan pul yoki natura ko'rinishidagi ish haqi. U hisoblangan mablag'lar asosida, ya'ni qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa chegirmalar olinmasdan hisobga olinadi. Xodimlar uchun ish haqi ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat: a) ish haqi, b) ish beruvchilarning ijtimoiy sug'urta badallari;

ishlab chiqarish va importga soliqlar mahsulotlar uchun soliqlar va ishlab chiqarishga boshqa soliqlardan iborat;

mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi;

ishlab chiqarishga boshqa soliqlar – korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarishda ishtirok etishi natijasida to'laydigan mahsulotlar uchun soliqlardan tashqari barcha soliqlardan tashkil topadi. Ular yer va tabiiy boyliklar, ishlab chiqarish vositalari yoki ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan ishchi kuchi, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish yoki operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsat olish va boshqalar uchun to'lanishi mumkin;

ishlab chiqarish va import uchun subsidiyalar – davlat tomonidan muayyan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun korxonalarga tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va import qilish yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanish munosabati bilan amalga oshiriladigan joriy qaytarilmaydigan beg'araz to'lovlar;

mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan,

sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar);

ishlab chiqarish uchun boshqa subsidiyalar – korxonalar ishlab chiqarish omillaridan foydalanish munosabati bilan davlatdan oladigan subsidiyalardan iborat;

yalpi foyda qo'shilgan qiymatning xodimlarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar va ishlab chiqarish va importga sof soliqlarni chegirib tashlanganidan keyin ishlab chiqaruvchilarda qoladigan qismini aks ettiradi;

yalpi aralash daromad uy xo'jaliklari o'zlariga tegishli bo'lgan nokorporativ korxonalarda ish haqi to'lanmaydigan mehnat sarfini amalga oshirishlari mumkin, shuningdek, ushbu modda tadbirkor yoki uni egasining daromadidan ajratib bo'lmaydigan, ish uchun mukofot elementini o'z ichiga oladi. Bunday holda u aralash daromad deb ataladi;

mulkdan olinadigan daromad institutsional birliklar tomonidan moliyaviy aktivlar va ishlab chiqarilmagan moddiy boyliklar (yer, foydali qazilmalar zaxiralari va boshqalar)dan foydalanishdan olinadigan yoki to'lanadigan daromatlarni o'z ichiga oladi;

birlamchi daromadlarning saldosi institutsional rezident-birliklarda ularni ishlab chiqarishdagi ishtiroki natijasida shakllanadigan va mulkdan olinadigan daromadlarini ifodalaydi. U rezident-birliklar tomonidan olingan va to'langan jami birlamchi daromadlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Butun iqtisodiyot darajasida yalpi asosda, ya'ni asosiy kapital iste'molini ayirib tashlashdan oldin aniqlangan birlamchi daromadlarning saldosi yalpi milliy daromadga teng;

ixtiyordagi daromad institutsional birlikning yakuniy iste'moli va jamg'arish uchun ega bo'lgan daromadini ifodalaydi. U birlamchi daromadlar saldosidan joriy transfertlar sifatida taqdim etilgan daromatlarni ayirib, olingan joriy transfertlarni qo'shilganiga teng bo'ladi. Barcha institutsional rezident-birliklarning ixtiyordagi daromatlari yig'indisi **yalpi ixtiyordagi milliy daromadga** teng;

transfert bu institutsional birlik tovar, xizmat yoki aktiv (moliyaviy yoki nomoliyaviy)ni boshqa birlikka, uning evaziga tovar, xizmat yoki aktiv ko'rinishidagi to'lovni olmasdan taqdim etishini nazarda tutadigan operatsiyadir. Joriy va kapital transfert turlari mavjud bo'lib, ular pul va natura ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin;

joriy transfertlar quyidagi asosiy turlarni o'z ichiga oladi: daromad, boylik va boshqalar uchun joriy soliqlar, ijtimoiy sug'urta badallari, ijtimoiy nafaqalar, kapital xususiyatiga ega bo'lmagan ixtiyoriy badallar va sovg'alar, jarimalar va boshqalar;

to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – bir mamlakat rezidenti boshqa mamlakat rezidenti bo'lgan korxona boshqaruvini nazorat qiladigan yoki sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan investitsiya toifasi.

portfel investitsiyalar – to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yoki zaxira aktivlariga kiritilganidan tashqari qarz yoki qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar va qoldiqlar sifatida aniqlanadi;

boshqa investitsiyalar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, portfelli investitsiyalar yoki zaxira aktivlaridan tashqari qoldiqlar va operatsiyalarni o'z ichiga oladigan boshqa toifalardir.

2-bob. Birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobi shakllanishining umumiy tamoyillari

2. Birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobi ishlab chiqarish hisobining davomi hisoblanib, daromadlarning birlamchi taqsimlanishi hisobining ikkinchi hisobidir. U ishlab chiqarish faoliyati va mulkdan olinadigan birlamchi daromadlarning iqtisodiyotning institutsional birliklari yoki sektorlari va tashqi dunyo sektori o'rtasida taqsimlanishini aks ettiradi.

3. Agar daromadlarning shakllanishi hisobida rezident tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarish ishtirokchilariga birlamchi daromadlar (mulkdan olinadigan daromatlardan tashqari) to'lanishi aks ettirilsa, u holda birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobida daromatlarni birlamchi taqsimlash bilan bog'liq keyingi jarayonlar – ishlab chiqarish ishtirokchilari (rezidentlar) tomonidan birlamchi daromad olishlari, shuningdek, ularning mulkdan daromad olishi va to'lashi aks ettiriladi. Ko'rib chiqilayotgan birlamchi daromad rezidentlar tomonidan ham O'zbekiston Respublikasi YAIMini ishlab chiqarishda ishtirok etish natijasida, ham boshqa mamlakatlar YAIMini ishlab chiqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish natijasida olinishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi YAIMini ishlab chiqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan norezidentlarning birlamchi daromadlari ushbu hisobda aks ettirilmaydi, balki tashqi dunyo hisobida aks ettiriladi.

4. Butun iqtisodiyot bo'yicha birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobi ushbu Uslubiy nizomning 1-ilovasidagi sxemaga muvofiq, shuningdek, iqtisodiyotning institutsional sektorlari bo'yicha tuzilishi 2-ilovaga muvofiq tuziladi.

Birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobining resurs qismida – daromadlarning shakllanishi hisobidan o'tkaziladigan yalpi foyda va yalpi aralash daromad qayd etiladi, shuningdek, rezidentlar tomonidan rezidentlardan va tashqi dunyo sektoridan olingan birlamchi daromadlarning quyidagi asosiy turlarini aks ettiradi:

- ishlab chiqarishdan olingan daromadlar;
- mulkdan olingan daromadlar.

Birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobining ishlatilishi qismida – rezidentlar tomonidan ham rezidentlarga, ham tashqi dunyo sektoriga to'langan mulkdan olinadigan daromadlar qayd etiladi.

5. Butun iqtisodiyot uchun birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobining balanslash moddasi yalpi milliy daromad hisoblanadi. Bozor narxlaridagi yalpi milliy daromad bu – rezident birliklar tomonidan olingan birlamchi daromadlar yig'indisidan to'langan birlamchi daromadlar (ishlab chiqarish faoliyati va mulkdan olinadigan daromadlar: ish haqi, dividendlar, foizlar, ijara va boshqalar) chegirib tashlanadi va tashqi dunyo sektoridan olingan

birlamchi daromadlar saldosi hisobga olgan holda aniqlanadi. Yalpi milliy daromad yalpi ichki mahsulotdan boshqa mamlakatlardan olingan, shu kabi boshqa mamlakatlarga o'tkazilgan birlamchi daromadlar miqdori bilan farqlanadi.

$$GNI = GDP + PIr - PIp, \quad (1)$$

bu yerda:

GNI – yalpi milliy daromad;

GDP – yalpi ichki mahsulot;

PIr – tashqi dunyodan olingan birlamchi daromadlar;

PIp – tashqi dunyoga berilgan birlamchi daromadlar.

6. Birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobi iqtisodiyotning quyidagi institutsional sektorlari bo'yicha shakllantiriladi:

nomoliyaviy korporatsiyalar (*S11*);

moliyaviy korporatsiyalar (*S12*);

davlat boshqaruvi organlari (*S13*);

uy xo'jaliklari (*S14*);

uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar (UXXKNT) (*S15*).

Birlamchi daromadlarning sektorlar bo'yicha taqsimlanishi hisobining balanslash moddasi birlamchi daromadning saldosi hisoblanadi.

1-§. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar

7. Rezident-tashkilotlarning ishlab chiqarishdan olgan daromadlari birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobining resurs qismida tegishli oluvchi sektorlar bo'yicha aks ettiriladi:

xodimlarning ish haqi va yalpi aralash daromad – uy xo'jaligi sektorida;

yalpi foyda – barcha sektorlarda;

ishlab chiqarish va importga soliqlar – davlat boshqaruvi organlari sektorida;

ishlab chiqarish va import uchun subsidiyalar – davlat boshqaruvi organlari sektorining umumiy resurslarini kamaytiradigan manfiy qiymat sifatida qayd etiladi.

Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar, daromadlarning shakllanishi hisobining ishlatilish qismidan birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobining resurs qismiga o'tkaziladi.

2-§. Mulkdan olingan daromadlar

8. Mulkdan olingan daromadlar institutsional birliklar tomonidan moliyaviy aktivlar yer va boshqa nomoliyaviy ishlab chiqarilmagan aktivlarni foydalanishga berishdan olinadigan yoki to'lanadigan daromadlardir:

qimmatli qog'ozlar, bank omonatlari (depozitlar) va bank kreditlari bo'yicha foizlar;

dividendlar;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha qayta investitsiya qilingan

daromadlar;

yer va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun renta;

sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan daromadlar;

investitsiyalardan olingan daromadlar, ular to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha daromadlar, portfel investitsiyalardan daromadlar va boshqa investitsiyalar bo'yicha daromadlarga bo'linadi.

Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha mulkdan olingan daromadlar ushbu Uslubiy nizomning 3-ilovasida keltirilgan.

9. Foizlar bu depozitlar, qimmatli qog'ozlar (aksiyalardan tashqari), kreditlar va boshqa debitorlik qarzlari kabi moliyaviy aktivlar egalari tomonidan mulkdan olinadigan daromad shaklidir. Ushbu moliyaviy aktivlarni egalari tomonidan boshqa institutsional birliklarga taqdim etilishi natijasida ular qarzni to'lash va undirilgan foizlarni qo'shib to'lash bo'yicha moliyaviy majburiyatga ega bo'lishadi.

10. Dividendlar – aksiyadorlar o'zlari jamoa mulkdorlari bo'lgan korxonalar (korporatsiyalar) ixtiyorida bo'lgan mablag'larni berish natijasida oladigan mulkdan olinadigan daromadlar shakli. Dividendlar birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobida nomoliyaviy korxonalar va moliya tashkilotlarning barcha sektorlarga to'lovlari sifatida hisobga olinadi.

11. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qayta investitsiya qilishdan olingan daromadlar korxonaning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya qilishdan olingan taqsimlanmagan daromadlarini o'zida aks ettiradi.

Korxonalarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha taqsimlanmagan daromatlari daromadlarning investor tomonidan qaytarib olinmaydigan, balki korxona kapitaliga qo'shiladigan qismini o'zida aks ettiradi. Biroq, u MHTda shartli ravishda dastlab xorijiy investorga mulkdan olingan daromadni to'lash, keyin esa uni qayta investitsiya qilishdan olingan daromad sifatida qaraladi. Rezidentlar tomonidan bu turdagi mulkdan olingan daromadlarni to'lash ichki iqtisodiyot sektorlari bo'yicha birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobida hamda tashqi dunyoning birlamchi daromatlari hisobida va joriy transfertlarida aks ettiriladi. Ushbu daromadning korxonalar kapitaliga qo'shilishi ichki iqtisodiyot sektorlari hamda tashqi dunyoning moliyaviy hisobida aks ettiriladi.

12. Renta bu ishlab chiqarilmaydigan moddiy aktivlar (yer va yer osti boyliklari) egalari ijarachilar tomonidan ma'lum vaqt davomida ushbu aktivlardan foydalanish huquqini olish uchun to'lanadigan mulkdan olinadigan daromaddir.

Renta yer rentasi va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun rentani o'z ichiga oladi.

Yer rentasi bu yer egasi tomonidan ijarachidan yer va unda joylashgan suv obyektlaridan vaqtincha foydalanish huquqi uchun olingan mulkdan olinadigan daromaddir.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun renta bu yer osti boyliklari egasi tomonidan yer osti boyliklari uchastkasidan ma'lum chegaralarda

belgilangan muddatda foydalanish huquqi uchun ularning foydalanuvchilaridan olingan mulkdan olingan daromaddir.

13. Sug'urta polisi foydalanuvchilarning mulkdan olingan daromadlari – sug'urta texnik zaxiralarini qimmatli qog'ozlarga, yerga yoki boshqa aktivlarga investitsiya qilishdan olingan sof daromadi hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlari moliyaviy vositachi sifatida ikki turdagi moliyaviy operatsiyalarda ishtirok etadi. Bir tomondan, ular sug'urta polisi egalarining vaqtincha bo'sh pul mablag'larini muayyan hodisalar yuz berganda sug'urta tovonlarini to'lash majburiyatini olgan holda qayta taqsimlaydilar. Shu asosda ular sug'urta zaxiralarini shakllantiradilar. Boshqa tomondan, ular mulkdan daromad olish maqsadida sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishdan yoki aktivlarining bozor narxlari oshishi hisobidan daromad olishadi.

Sug'urta texnik zaxiralari sug'urta tashkilotlari tomonidan saqlansa va boshqarilsada, ular sug'urta qildiruvchilarning aktivlari hisoblanadi. Da'volar bo'yicha kelajakdagi to'lovlar uchun zaxiralar bundan mustasno, ular benefitsiarlarning (sug'urta polisidan pul oluvchining) aktivlaridir. Sug'urta tashkilotlari uchun sug'urta texnik zaxiralari majburiy hisoblanadi. Shuning uchun, sug'urta texnik zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan sof daromad sug'urta tashkilotlariga emas, balki sug'urta polislari egalariga tegishli bo'lgan mulkdan olingan daromadlar hisoblanib, ushbu daromadlar sug'urta tashkilotlarining texnik zaxiralarini oshirish uchun kiritilgan qayta investitsiya sifatida qaraladi. Daromadlarning birlamchi taqsimlanishi hisobida mulkdan olinadigan daromad moliyaviy korporatsiya sektori bo'yicha to'langan sifatida, boshqa sektorlar uchun esa olingan sifatida ko'rsatiladi. Moliyaviy hisobda sug'urta texnik zaxiralarning sof o'zgarishlari qayd etiladi.

Sug'urta texnik zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan sof daromadni sektorlar o'rtasida taqsimlash sektorlar tomonidan kiritilgan sug'urta mukofotlariga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

14. Investitsiyalardan olingan daromadlar to'g'ridan-to'g'ri, portfel va boshqa investitsiyalardan olingan daromaddan tashkil topadi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha daromadlar kapitaldagi ishtiroki bilan ta'minlangan daromadlarni va qarz majburiyatlari bo'yicha daromadlarni (foizlarni) o'z ichiga oladi;

Portfel investitsiyalardan olingan daromadlar rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog'ozlariga egalik qilish natijasida yuzaga keladigan pul oqimlarini o'z ichiga oladi.

Boshqa investitsiyalardan olingan daromadlar tijorat (savdo) kreditlari, ssudalar, depozitlar va hisoblarda, boshqa aktivlar va majburiyatlar bo'yicha operatsiyalardan olingan tushumlarni va to'lovlarni o'z ichiga oladi.

15. Mulkdan olingan daromatlarga quyidagilar kirmaydi:

ishlab chiqarilgan aktivlardan (binolar, inshootlar, mashinalar va uskunalar) foydalanish uchun ijara haqi (bu xizmatlar uchun to'lov sifatida qaraladi va oraliq yoki yakuniy iste'molda hisobga olinadi);

nomoddiy ishlab chiqarilmagan aktivlardan (patentlar, litsenziyalar, nou-xau va boshqalar) vaqtincha foydalanish uchun to'lov, u ham ularning egalarining

xizmatlari uchun to'lov sifatida qaraladi va foydalanuvchilarning oraliq iste'molida aks etadi.

3-§. Birlamchi daromadlar saldosi

16. Birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotning barcha sektorlarida olingan va to'langan mulkdan olingan daromadlar saldosi tashqi dunyo sektoridan olingan va to'langan mulkdan olingan daromadlar saldosi hajmiga teng.

Birlamchi daromadlar saldosi iqtisodiyot sektorlari tomonidan turlicha shakllanadi, chunki iqtisodiyotning turli sektorlarida har xil turdagi birlamchi daromadlar olinadi. Ishlab chiqarish va import uchun soliqlar faqat davlat boshqaruvi organlari sektorida, xodimlarning ish haqi va yalpi aralash daromadi esa faqat uy xo'jaligi sektorida hisobga olinadi.

Nomoliyaviy korporatsiyalar va moliyaviy korporatsiyalar sektorlari hamda uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoridagi birlamchi daromadlar saldosi yalpi foyda yig'indisi va olingan va to'langan mulkdan olingan daromadlar o'rtasidagi farq sifatida olinadi.

Davlat boshqaruvi organlari sektorining birlamchi daromadlar saldosi ishlab chiqarish va importga soliqlar (subsidialarni hisobga olmagan holda) olingan va to'langan mulkdan olingan daromadlar o'rtasidagi farq sifatida olinadi.

Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining birlamchi daromadlar saldosi yalpi foyda yig'indisi, olingan va to'langan mulkdan olingan daromadlar o'rtasidagi farq sifatida olinadi.

Uy xo'jaliklari sektorining birlamchi daromadlari saldosi xodimlarning ish haqi, yalpi aralash daromad, olingan va to'langan mulkdan olingan daromadlar o'rtasidagi farq sifatida olinadi. Shuningdek, u xususiy uy-joy mulkdorlari – fuqarolar tomonidan o'zlarining yakuniy iste'moli uchun uy-joy xizmatlarini ko'rsatish xarajatlarini xam o'z ichiga oladi.

3-bob. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobi shakllanishining umumiy tamoyillari

17. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobi daromadlarni taqsimlash jarayonining ikkinchi bosqichini aks ettiradi va iqtisodiyotning institutsional birliklari yoki sektorlarining birlamchi daromadlar saldosi olingan va to'langan joriy transfertlarning (natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlardan tashqari) saldosi qo'shish orqali ixtiyordagi daromadga o'zgarishini ko'rsatadi. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobi sxemasi ushbu Uslubiy nizomning 4-ilovasida keltirilgan.

Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobi resurs qismida birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobidan o'tadigan yalpi milliy daromad va olingan joriy transfertlar aks etadi.

Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobi ishlatilishi qismida to'langan joriy transfertlar aks etadi. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobi balanslash moddasi yalpi ixtiyoriy daromad hisoblanadi.

$$GNDI = GNI + CTr - CTp, \quad (2)$$

bu yerda:

GNDI – yalpi milliy ixtiyordagi daromad;

GNI – yalpi milliy daromad;

CTr – tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar;

CTp – tashqi dunyoga to‘langan joriy transfertlar.

18. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlanishi hisobi iqtisodiyotning quyidagi institutsional sektorlari bo‘yicha shakllantiriladi:

nomoliyaviy korporatsiyalar (*S11*);

moliyaviy korporatsiyalar (*S12*);

davlat boshqaruvi organlari sektori (*S13*);

uy xo‘jaliklari (*S14*);

uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori (UXXKNT) (*S15*).

$$GDI = BPI + CTr - CTp, \quad (3)$$

bu yerda:

GDI – sektorning yalpi ixtiyordagi daromadi;

BPI – sektorlarning birlamchi daromadlari saldosi;

CTr – sektor tomonidan iqtisodiyotning boshqa sektorlaridan va tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar;

CTp – iqtisodiyotning boshqa sektorlariga va tashqi dunyoga to‘langan joriy transfertlar.

4-§. Transfertlar

19. Transfertlar joriy transfertlar va kapital transfertlarga bo‘linadi. Kapital transfertlar aktivga egalik huquqini beg‘araz o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Tomonlar o‘rtasida aktivni sotib olish yoki undan qandaydir tarzda foydalanish majburiyatlari mavjud. Kapital transfertlar boylikni qayta taqsimlaydi, lekin ular jamg‘armaga ta’sir qilmaydi.

20. Boshqa barcha transfertlar joriy hisoblanadi. Ular naqd yoki natura ko‘rinishida bo‘lib, tovarlar va xizmatlar iste’moliga ta’sir ko‘rsatish orqali ixtiyoriy daromadlar darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Daromadlarni ikkilamchi taqsimlanishi hisobida joriy transfertlarning quyidagi turlari ajratiladi:

daromad va foyda soliqlari, mulk va boshqa soliq tushumlari;

davlat ijtimoiy sug‘urtasiga badallar;

davlat ijtimoiy sug‘urtasi nafaqalari;

boshqa joriy transfertlar.

Iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha joriy transfertlar ushbu Uslubiy nizomning 5-ilovasiga muvofiq keltirilgan.

21. Daromad va foyda soliqlari, mulk va boshqa soliq tushumlari institutsional sektorlar tomonidan foyda va boshqa daromad olish, mulkka egalik qilish, tovarlardan foydalanish munosabati bilan davlatga muntazam ravishda to'lanadigan naqd pul shaklida majburiy to'lovlar hisoblanadi. MHTda barcha soliqlar hisoblash usuli bo'yicha, ya'ni soliq majburiyati yuzaga kelishiga olib keladigan tegishli operatsiyalar yoki hodisalar sodir bo'lganda hisobga olinishi kerak. Bu summalarga soliqlarni to'lamaganlik yoki o'z vaqtida to'lamaganlik uchun undiriladigan foizlar, jarimalar va penyalari kirmaydi.

Ushbu soliqlar bo'yicha ma'lumotlar manbai bo'lib, O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asos bo'ladi.

Daromad va foyda solig'i, mulk soliqlari va boshqa soliq tushumlari nomoliyaviy korporatsiyalar, moliyaviy korporatsiyalar va uy xo'jaliklari sektorlari tomonidan davlat boshqaruvi organi sektoriga to'lanadi.

22. Ijtimoiy sug'urta badallari ish beruvchilar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va kelajakda xodimlar, o'zini o'zi band qilgan shaxslar yoki ularning oila a'zolari uchun uy xo'jaliklarining daromadlari va uy-ro'zg'or farovonligi kamayishiga moyil bo'lgan muayyan sharoitlarda ijtimoiy ta'minot olish huquqini ta'minlaydi. Ijtimoiy sug'urta badallariga quyidagilar kiradi:

- haqiqiy ijtimoiy sug'urta badallari,
- hisoblangan ijtimoiy sug'urta badallari.

Haqiqiy ijtimoiy sug'urta badallari ish beruvchilar tomonidan aholini ijtimoiy sug'urtalash dasturlariga muvofiq ijtimoiy sug'urta jamg'armalariga to'lanadigan to'lovlardan iborat bo'lib, pensiya, nafaqalar to'lash va xodimlarni davolanish va dam olish xarajatlarini moliyalashtirish uchun asosiy mablag'lar manbai hisoblanadi. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobida haqiqiy ijtimoiy sug'urta badallari uy xo'jaliklari sektori tomonidan davlat organlari sektoriga (davlat ijtimoiy sug'urta fondlari) joriy transfertlar sifatida ko'rsatiladi.

Ish beruvchilar tomonidan xodimlarga ijtimoiy sug'urta jamg'armalari hisobidan emas, balki korxona hisobidan to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar ish beruvchining hisoblangan ijtimoiy sug'urta badallari sifatida qaraladi.

23. Davlat ijtimoiy sug'urta to'lovlarining quyidagi turlari mavjud:

- pensiyalar (mehnat, ijtimoiy, alohida xizmatlari uchun qo'shimcha to'lovlar, muddatli harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga to'lanadigan);

- nafaqalar (bola tug'ilishi munosabati bilan; homiladorlik va tug'ish davri uchun; 18 yoshga to'lmagan nogiron bolani tarbiyalayotgan onalarga beriladigan ishdan bo'sh kun uchun; dafn qilish uchun; 2 yoshgacha bo'lgan bolani parvarish qilish uchun; inson immuniteti tanqisligi virusi yoki OITS bilan kasallangan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun; I guruh nogironiga, 18 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaga g'amxo'rlik qilayotgan ishlamaydigan mehnatga layoqatli shaxslar uchun);

- kompensatsiya to'lovlari (bolalar uchun nafaqalarga, ijtimoiy pensiyalarga, nogiron bolani parvarish qilish uchun nafaqalarga, I-guruh nogironini parvarish qilish uchun nafaqalarga);

moddiy yordam (pensionerlarga, ishsizlarga va ularning oila a'zolariga).

Daromadlarni ikkilamchi taqsimlanishi hisobida davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar nomoliyaviy, moliyaviy korporatsiyalar, davlat boshqaruvi organlari va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari sektorlaridan uy xo'jaligi sektoriga to'langan joriy transfertlar sifatida hisobga olinadi.

24. Boshqa joriy transfertlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 xalqaro hamkorlik doirasidagi joriy transfertlar;
 sug'urta mukofotlari (badallari), hayot sug'urtasidan tashqari;
 sug'urta tovonini to'lash, hayot sug'urtasidan tashqari;
 qolgan boshqa joriy transfertlar.

25. Xalqaro hamkorlik doirasidagi joriy transfertlarga davlat boshqaruvi organlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi yoki turli davlatlarning boshqaruv organlari o'rtasidagi pul yoki natura ko'rinishidagi transfertlar kiradi. Bular grantlar, gumanitar va texnik yordamlar, shuningdek, xalqaro va davlatlararo tashkilotlarga badallar.

Daromadlarni ikkilamchi taqsimlanishi hisobida ushbu transfertlar davlat boshqaruvi organlari sektori tomonidan tashqi dunyo sektoriga to'langan yoki davlat boshqaruvi organlari sektori tomonidan tashqi dunyo sektoridan olingan transfertlar sifatida qayd etiladi.

26. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlanishi hisobida aks ettiriladigan sug'urta mukofotlari (badallari) tashkilotlar va uy xo'jaliklari tomonidan mulk, shaxsiy va boshqa sug'urta bo'yicha to'lanadigan majburiy va ixtiyoriy badallardir, sug'urta tashkilotlariga to'lanadigan hayot sug'urtasi badallari va davlat ijtimoiy sug'urtasi badallari bundan mustasno (masalan, qo'shimcha pensiyalarni sug'urta qilish).

MHT uslubiyotiga muvofiq, sug'urta mukofotlari (badallari) joriy davrda sug'urta kompaniyalari tomonidan amalda olingan sug'urta mukofotlari miqdorida tavakkalchiliklarni qoplash uchun mo'ljallangan joriy yoki oldingi davrlarda to'langan badallarni o'z ichiga oladi.

27. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlanishi hisobida sug'urta tovonini to'lovlari sug'urta hodisasi sodir bo'lishi natijasida mulk, shaxsiy va boshqa sug'urta turlari bo'yicha tashkilotlar va uy xo'jaliklari tomonidan olingan to'lovlarni ifodalaydi, bunda hayot sug'urtasi to'lovlari hisobga olinmaydi. MHT uslubiyotiga muvofiq sug'urta to'lovlari hisobot davrida sug'urta hodisasi yuzaga kelishi bilan to'langan sug'urta to'lovlarni o'z ichiga oladi va hisobot davrida haqiqatda to'langan sug'urta to'lovlari miqdori bilan aniqlanadi.

Sug'urta mukofotlari (badallari) daromadlarni ikkilamchi taqsimlanishi hisobida iqtisodiyotning barcha sektorlaridan moliyaviy korporatsiyalar sektoriga joriy transfertlar sifatida, sug'urta tovonlari to'lovlari esa iqtisodiyotning barcha sektorlariga moliyaviy korporatsiyalar sektoridan joriy transfertlar sifatida aks ettiriladi.

28. Boshqa joriy transfertlarga quyidagilar kiradi:

uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoridagi joriy transfertlar;

uy xo'jaliklari sektoridagi joriy transfertlar;
jarimalar, penyalar;
qolgan boshqa joriy transfertlar.

29. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoridagi joriy transfertlarga quyidagilar kiradi:

boshqa institutsional birliklardan olinadigan a'zolik badallari, ixtiyoriy badallar, xayriyalar, ushbu tashkilotlarning nobozor ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash yoki ushbu mablag'lar hisobidan uy xo'jaliklariga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan joriy transfertlar (iqtisodiyotning barcha sektorlaridan uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari sektoriga transfertlar sifatida hisobga olinadi);

sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning alohida bo'linmalarini saqlash xarajatlari (nomoliyaviy korporatsiyalar sektoridan uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari sektoriga transfertlar sifatida hisobga olinadi).

30. Uy xo'jaliklari sektoridagi joriy transfertlar bu - rezident uy xo'jaliklari o'rtasidagi hamda rezident uy xo'jaliklari va norezident uy xo'jaliklari o'rtasidagi pul o'tkazmalar va natura ko'rinishidagi sovg'alardir (kapital sovg'alar bundan mustasno).

Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobida rezident uy xo'jaliklari o'rtasidagi transfertlar faqat uy xo'jaliklari sektori kichik sektorlarga ajratilganda hisobga olinadi.

Rezident uy xo'jaliklari va norezident uy xo'jaliklari o'rtasidagi transfertlar uy xo'jaligi sektoridan tashqi dunyo sektoriga olingan va to'langan holda ko'rsatiladi.

31. Jarimalar va penyalar qonunlar, bitimlar, shartnomalar shartlari va boshqalarni buzganlik uchun sud yoki ma'muriy organlarning qarori bilan institutsional birliklar tomonidan to'lanadigan majburiy to'lovlardir.

Ular korxonalar va aholi tomonidan davlat budjetiga, shuningdek, rezident xo'jalik birliklari tomonidan norezidentlarga to'lanishi mumkin.

32. Qolgan boshqa joriy transfertlarga quyidagilar kiradi:

korxonalar va muassasalar tomonidan xodimlarga ijtimoiy nafaqalar bilan bog'liq bo'lmagan bir martalik moddiy yordam to'lovlari;

jismoniy shaxslardan davlat budjetiga yig'imlar;

jismoniy va yuridik shaxslardan davlat budjetiga boshqa tushumlar.

33. Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobida iqtisodiyot sektorlari tomonidan iqtisodiyotning boshqa sektorlaridan va tashqi dunyo sektoridan olingan joriy transfertlar va iqtisodiyot sektorlari tomonidan iqtisodiyotning boshqa sektorlariga va tashqi dunyo sektoriga to'langan joriy transfertlar aks ettiriladi. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobida O'zbekiston Respublikasi jami iqtisodiyoti bo'yicha barcha sektorlaridan olingan va to'langan joriy transfertlar saldosi tashqi dunyo sektoridan olingan va to'langan joriy transfertlar saldosi hajmiga teng bo'ladi. Shuningdek, u tashqi dunyo hisobida tashqi dunyodan olingan va to'langan joriy transfertlar saldosi hajmiga teng bo'ladi (lekin qarama-qarshi belgi bilan).

5-§. Daromadlarning taqsimlanishi hisoblari uchun axborot manbalari

34. Dividendlar va investitsiyalar bo'yicha boshqa daromadlar to'g'risidagi axborot manbai – yirik korxonalarning “Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisoboti” va kichik korxonalarning “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” ma'lumotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank tizimidagi foiz daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlari hisoblanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

35. Sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan daromad ishlab chiqarish hisobining K – “Moliyaviy va sug'urta faoliyati” seksiyasidan o'tkaziladi.

36. Yer uchastkalari va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun ijara haqi O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlariga asosan aniqlanadi.

37. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha qayta investitsiya qilingan daromadlar va tashqi dunyodan olingan va tashqi dunyo sektoriga to'langan boshqa mulkdan olinadigan daromadlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov balansi to'g'risidagi ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

38. Davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalari to'g'risidagi axborot manbai O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan olingan ma'lumotlar hisoblanadi.

39. Xalqaro hamkorlik doirasidagi joriy transfertlar to'g'risidagi axborot manbai O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov balansi bo'yicha ma'muriy ma'lumotlari hisoblanadi.

40. Uy xo'jaliklari sektori doirasida joriy transfertlar to'g'risidagi axborot manbai uy xo'jaliklari so'rovnomasi ma'lumotlari va O'zbekiston Respublika Markaziy bankining to'lov balansi bo'yicha ma'muriy ma'lumotlari hisoblanadi.

41. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoriga transfertlar to'g'risidagi axborot manbai nodavlat notijorat tashkilotlarning statistika hisobotlari hisoblanadi.

42. Sug'urta mukofotlari (badallari) va sug'urta tovonlari to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar manbai sug'urta tashkilotlarining statistika hisoboti ma'lumotlari hisoblanadi.

43. Jismoniy va yuridik shaxslardan davlat budjetiga undiriladigan jarimalar va penyalar to'g'risidagi ma'lumotlar manbai O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlari, shuningdek, tashqi dunyo sektoridan olingan va to'langan jarimalar to'g'risidagi ma'lumotlar manbai bo'lib esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov balansi to'g'risidagi ma'lumotlari hisoblanadi.

44. Qolgan boshqa transfertlar bo'yicha ma'lumotlar manbai bo'lib, korxonalarning statistika hisobotlari va O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlari xizmat qiladi.

4-bob. Natura ko'rinishidagi daromadlarning qayta taqsimlanishi hisobini shakllantirishning umumiy tamoyillari

45. Natura ko'rinishidagi daromadlarning qayta taqsimlanishi hisobi ushbu Uslubiy nizomning 6-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq shakllantiriladi va daromadlarning qayta taqsimlanishi jarayonining navbatdagi bosqichini aks ettiradi. Ushbu hisobda uy xo'jaliklarining, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning va davlat organlari tashkilotlarining ixtiyoridagi daromadlari natura shaklida ijtimoiy transfertlarni olgandan va to'lagandan keyin ixtiyordagi daromadga aylanishini ko'rsatadi. Bu jarayonda nomoliyaviy va moliyaviy korporatsiyalar ishtirok etmaydi.

Natura ko'rinishidagi daromadlarning qayta taqsimlanishi hisobining resurs qismida iqtisodiyot sektorlarining yalpi ixtiyordagi daromad hajmi va uy xo'jaligi sektori uchun olingan natura ko'rinishida ijtimoiy transfertlar aks ettiriladi.

Hisobning ishlatilish qismida uy xo'jaliklari sektoriga to'langan natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar aks ettiriladi. Hisobning balanslash moddasi yalpi tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromad hisoblanadi.

46. Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar davlat boshqaruvi organlari sektori va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori tomonidan rezident uy xo'jaliklariga taqdim etiladigan natura ko'rinishidagi ijtimoiy nafaqalar hamda nobozor yakka tartibdagi tovarlar va xizmatlar transfertlaridan iborat bo'ladi. Ular bozordan sotib olinadimi yoki davlat tashkilotlari yoki uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar tomonidan nobozor mahsulot sifatida ishlab chiqariladimi bu ahamiyatga ega bo'lmaydi. Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar davlat daromadlari yoki davlat ijtimoiy sug'urta badallari, xayriya va mulkdan olinadigan daromadlar hisobidan moliyalashtiriladi. Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar sotib olingan tovarlar va xizmatlar uchun uy xo'jaligi xarajatlarini qoplash yoki ularga xizmatlar ko'rsatish sifatida taqdim etiladi.

47. Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar to'g'risida axborot manbalari O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ma'muriy ma'lumotlari hisoblanadi.

48. Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlarning qiymati yakka tartibdagi xizmatlar ko'rsatuvchi davlat boshqaruvi organlari sektori va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning yakuniy iste'mol xarajatlari yig'indisiga teng.

49. Natura ko'rinishidagi daromadlarning qayta taqsimlanishi hisobining balanslash moddasi yalpi tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromad hisoblanadi.

U iqtisodiyot sektori yalpi ixtiyordagi daromadiga shu sektor tomonidan olinadigan natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlarni qo'shib, sektor tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan ijtimoiy transfertlarni ayirish yo'li bilan hisoblanadi.

Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar faqat davlat boshqaruvi organlari sektori va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlari tomonidan to'lanadi va faqat uy xo'jaliklari sektori tomonidan olinadi. Bundan kelib chiqadiki, davlat boshqaruvi organlari sektori va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlarining yalpi tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromadi ularning yalpi ixtiyordagi daromadidan kam va uy xo'jaligi sektorining yalpi tuzatish kiritilgan ixtiyoridagi daromadi esa uning yalpi ixtiyordagi daromadidan oshadi va umumiy miqdori bo'yicha natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlarga teng bo'ladi. Yalpi tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromad butun iqtisodiyot darajasidagi yalpi ixtiyordagi daromad bilan mos keladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

50. Daromadlarning taqsimlanishi hisoblari sektorlar o'rtasida taqsimlanadigan va qayta taqsimlanadigan oqimlarni, iqtisodiyotning sektorlar bo'yicha tuzilmasini, ichki iqtisodiyot sektorlari va tashqi dunyo o'rtasidagi turli bog'lanishlarni aks ettiradi. Ushbu hisoblar ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish ko'plab tahliliy masalalarni, shu jumladan, taqsimlash jarayonlarining asosiy tendensiyalarini aniqlash, daromadlar va transfertlarni taqsimlashda tarkibiy siljishlarni aniqlash va boshqalarni hal qilish imkonini beradi.

51. Birlamchi ma'lumotlar shakllanishi bilan bog'liq uslubiyatning takomillashishi va axborot resusrlarining kengayishi, ushbu uslubiy nizomni kelgusida yanada takomillashtirish imkonini beradi.

52. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2021- yil 11- avgustdagi O'RQ-707-son "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni.
2. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.
3. European system of accounts – 2010, Eurostat, 2013 г.
4. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора нефинансовых предприятий, Статкомитет СНГ, 2001 г.
5. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора финансовых учреждений, Статкомитет СНГ, 2002 г.
6. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора государственного управления, Статкомитет СНГ, 2003 г.
7. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора домашних хозяйств, Статкомитет СНГ, 2004 г.
8. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора некоммерческих организаций обслуживающих домашние хозяйства // Статкомитет СНГ, 2003 г.
9. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30- dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
10. Moliya Vazirining 2010- yil 20- avgustdagi 65- son bu'yrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Budjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi.
11. Daromadlarning shakllanishi hisobini shakllantirish bo'yicha vaqtinchalik Uslubiy nizom. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2018- y. 26- dekabr.
12. Энциклопедия статистических терминов, Росстат, 2011 г.

Daromadlarning taqsimlanishi hisoblarining
shakllanishi bo'yicha Uslubiy nizomga
1-ILOVA

**Jami iqtisodiyot uchun birlamchi daromadlarni taqsimlanishi
hisobining shakllanish sxemasi**

joriy narxlarda, mln. so'mda

Ishlatilishi	Resurs
	1. Yalpi foyda / yalpi aralash daromad 2. Ish haqi 3. Ishlab chiqarish va importga sof soliqlar 4. Mulkdan olingan daromadlar, olingani 5. Mulkdan olingan daromadlar, to'langani (-)
6. Yalpi birlamchi daromadlar (saldo) (GNI)	
Jami (6)	Jami (1 + 2 + 3 + 4-5)

Daromadlarning taqsimlanishi hisoblarining
shakllanishi bo'yicha Uslubiy nizomga
2-ILOVA

Sektorlar kesimida birlamchi daromadlarni taqsimlanishi hisobining shakllanish sxemasi

joriy narxlarda , mln. so'mda

Ishlatilishi								Operatsiyalar va balanslovchi moddalar	Resurs							
Jami	Tashqi dunyo	Iqtisodiyot sektori bo'yicha	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Uy xo'jaliklari	Davlat boshqaruvi organlari	Moliyaviy korporatsiyalar	Nomoliyaviy korporatsiyalar		Nomoliyaviy korporatsiyalar	Moliyaviy korporatsiyalar	Davlat boshqaruvi organlari	Uy xo'jaliklari	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Iqtisodiyot sektori bo'yicha	Tashqi dunyo	Jami
								Yalpi foyda / yalpi aralash daromad	*	*	*	*	*	*	*	*
								Ish haqi				*		*	*	*
								Ishlab chiqarish va importga soliqlar			*			*		*
								Import va ishlab chiqarishga subsidiyalar (-)			*			*		*
								Mulkdan olingan daromadlar qabul qilingani	*	*	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	*	*	Mulkdan olingan daromadlar o'tkazilgani (-)								
*		*	*	*	*	*	*	Yalpi milliy daromad								

* Ushbu operatsiya uchun yozuv bo'lishi mumkin.

Daromadlarning taqsimlanishi hisoblarining
shakllanishi bo'yicha Uslubiy nizomga
3-ILOVA

Sektorlar kesimida mulkdan olingan daromadlar

joriy narxlarda, mln. soʻmda

[illegible]

Daromadlarning taqsimlanishi hisoblarining
shakllanishi bo'yicha Uslubiy nizomga
4-ILOVA

Daromadlarni ikkilamchi taqsimlanishi hisobining sxemasi

joriy narxlarda, mln. so'mda

Ishlatilishi								Operatsiyalar va balanslovchi moddalar	Resurs							
Jami	Tashqi dunyo	Jami iqtisodiyot sektorlari bo'yicha	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Uy xo'jaliklari	Davlat boshqaruvi organlari	Moliyaviy korporatsiyalar	Nomoliyaviy korporatsiyalar		Nomoliyaviy korporatsiyalar	Moliyaviy korporatsiyalar	Davlat boshqaruvi organlari	Uy xo'jaliklari	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Jami iqtisodiyot sektorlari bo'yicha	Tashqi dunyo	Jami
								Yalpi milliy daromad	*	*	*	*	*	*		*
								Joriy transfertlar qabul qilingani	*	*	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	*	*	Joriy transfertlar o'tkazilgani								
*	*	*	*	*	*	*	*	Yalpi ixtiyordagi daromad								

* Ushbu operatsiya uchun yozuv bo'lishi mumkin.

Daromadlarning taqsimlanishi hisoblarining
shakllanishi bo'yicha Uslubiy nizomga
5-ILOVA

Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha joriy transfertlar

joriy narxlarda, mln. so'mda

	Sektorlarga to'langani								Sektorlardan olingani							
	Nomo- liyaviy korpo- ratsiyalar	Moli- yaviy korpo- ratsiyalar	Davlat bosh- qaruvi organlari	Uy xo'ja- liklari	Uy xo'jalik- lariga xizmat ko'rsatuv- chi notijorat tashkilotlar	Jami iqtiso- diyot sektorlari bo'yicha	Tashqi dunyo	Jami	Nomo- liyaviy korpo- ratsiyalar	Moli- yaviy korpo- ratsiyalar	Davlat bosh- qaruvi organlari	Uy xo'ja- liklari	Uy xo'jalik- lariga xizmat ko'rsatuv- chi notijorat tashkilotlar	Jami iqtiso- diyot sektorlari bo'yicha	Tashqi dunyo	Jami
A	1	2	3	4	5	6	7	8	1	2	3	4	5	6	7	8
Daromad va foyda soliqlari, mulk va boshqa soliq daromadlari	*	*		*		*		*			*			*		*
Davlat ijtimoiy sug'urta badallari				*		*		*	*	*	*		*	*		*
Ijtimoiy nafaqalar	*	*	*		*	*		*				*		*		*
Boshqa joriy transfertlar																
xalqaro hamkorlik munosabati bilan joriy transfertlar			*			*	*	*			*			*	*	*
sug'urta mukofotlari	*	*	*	*	*	*	*	*		*				*		*
sug'urta tovonini to'lash		*				*		*	*	*	*	*	*	*	*	*
boshqa joriy transfertlar																
UXXKNT sektorida joriy transfertlar	*	*	*	*	*	*	*	*					*	*		*
uy xo'jaligi sektoridagi joriy transfertlar				*		*	*	*				*		*	*	*
jarimalar va penyalari	*	*		*	*	*	*	*			*			*	*	*
qolgan boshqa joriy transfertlar	*	*		*		*		*			*	*		*		*

Daromadlarning taqsimlanishi hisoblarining
shakllanishi bo'yicha Uslubiy nizomga
6-ILOVA

Natura ko‘rinishidagi daromadlarni qayta taqsimlanishi hisobining sxemasi

joriy narxlarda, mln. so‘mda

Ishlatilishi								Operasiyalar va balanslovchi moddalar	Resurs							
Jami	Tashqi dunyo	Jami iqtisodiyot sektorlari bo'yicha	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Uy xo'jaliklari	Davlat boshqaruv organlari	Moliyaviy korporatsiyalar	Nomoliyaviy korporatsiyalar		Nomoliyaviy korporatsiyalar	Moliyaviy korporatsiyalar	Davlat boshqaruvi organlari	Uy xo'jaliklari	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Jami iqtisodiyot sektorlari bo'yicha	Tashqi dunyo	Jami
								Yalpi ixtiyordagi daromad	*	*	*	*	*	*		*
*		*	*		*			Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar				*		*		*
*		*	*	*	*	*	*	Yalpi tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromad								

* Ushbu operatsiya uchun yozuv bo‘lishi mumkin.

